

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### AMIR TEMURNING HARBIY TAKTIKASI VA SAN'ATI.

*Fattoyeva Gavhar Hikmatillo qizi*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakultet Tarix yo'nalishi*

*3-bosqich 311-21-guruh talabasi.*

**Anotatsiya.** Jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri, Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning hayoti va siyosiy faoliyati, shu bilan birga, favqulodda harbiy iste'dodi, shaxs sifatidagi fazilatlari, qolaversa, ziddiyatlari hamon dunyo ahlini qiziqtirib kelmoqda. Ayniqsa, uning Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etish yo'lidagi kurashlari, harbiy yurishlari, davlatchilik siyosati va xalqaro diplomatik aloqalarni mustahkamlash borasida amalga oshirgan kengash hamda tadbirlari diqqatga sazovordir.

**Kalit so'zlar:** Movorounnahr, Temur tuzuklari, "Kengash usuli", "Sovg'a - sovurun usuli", "Yorliq" usuli, "Intiqom" usuli.

**Annotation.** The life and political activity of Sahibqiron Amir Temur, one of the great figures in world history, a great statesman and general who made a great contribution to the economic, political and spiritual development of the peoples of Central Asia, as well as his extraordinary military talent, qualities as a person, moreover, its conflicts are still interesting to the people of the world. Especially noteworthy are his struggles for the establishment of a centralized state in Movarounnahr, military campaigns, state policy and strengthening of international diplomatic relations.

**Key words:** Movorounnahr, Timur's rules, "Council method", "Gift-waste method", "Yarliq" method, "Revenge" method.

Amir Temurning shaxsiyati, fazilatlari va sarkardalik mahorati, harbiy san'ati, harbiy-taktik usullari to'g'risida manbalarda turlicha fikrlar mavjud. Shunga qaramay, adolat yuzasidan ularning aksariyatida sohibqironning ijobiy jihatlari e'tirof etiladi. Xususan, tarixchi Herman Vamberi o'zining mashhur "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida bu haqda shunday deb yozadi: "U o'zining uzoq davom etgan sohibqironlik hayotida juda ko'p yo'qotishlarga, nochorliklarga chidagan va doimo spartaliklar kabi soddaligiga sodiq qolgan. Uning tabiiy sifatlaridagi buyuk qirralar shundan iborat edi... U askariga Isfahonni talon-toroj qilishga ruxsat berganida, ulamolalar mahallasiga shafqat qilishni amr etgan; Hirot va Halab ulamolari bilan esa, diniy munozaralar qurgan. O'ziga o'xshab fikrlamaydigan (ya'ni, o'zgacha fikrlaydigan) kishilarga shohona hadyalar bergan". Ma'lumki, temurshunoslikda sohibqironning harbiy faoliyati va harbiy yurishlari chuqur o'rganilgan. Ammo sarkardaning katta yurishlari muvaffaqiyatini ta'minlagan harbiy-taktik mahorati alohida tadqiq qilingan emas.

Shularni e'tiborga olib, mavjud tarixiy manbalarga, eng avvalo, "Temur tuzuklari"ga tayanib, mazkur masalaning ana shu jihatlari imkon darajasida baholi qudrat to'xtalib o'tamiz. Amir Temurning o'z faoliyati davomida qo'llagan harbiy-taktik usullarini shartli ravishda quyidagilarga tayanib yoritish mumkin:

1. “Kengash usuli”. Temur mazkur usuldan keng foydalangan va uni eng samarali usul sifatida qo‘llagan. Bu o‘rinda, uning “Saltanat ishining to‘qqiz ulushini kengash bilan, bir ulushini qilich kuchi bilan hal qildim”, degan so‘zlari ham bejiz emas. Binobarin, Temur o‘z harbiy faoliyati davomida shoshma-shosharlik, tavakkalchilikka yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilgan. Har bir ishning foyda va ziyonini taqqoslab, keyin yakuniy xulosaga kelgan. Bu haqda uning “Tuzuklar”ida shunday jumlar bor: “Yana tajribamdan o‘tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi orqasida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash tabdir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir... Agar g‘anim ustiga lashkar tortmoqchi bo‘lsam, urush- yarashdan o‘rtaga so‘z tashlab, amirlarim ko‘ngillarining bu ikkiovdan qay biriga moyilligini bilishga intildim”.

Darhaqiqat, Amir Temur o‘z faoliyati davomida 31 marta kengash usuliga murojaat etgan.

2. “Sovg‘a-sovurun” usuli. Bu o‘rta asrlarda keng tarqalgan harbiy, siysiy va diplomatik usul bo‘lib, ba‘zan “Hadya”, “Peshkash” deb ham atalgan. Temur ko‘p hollarda bu usuldan ustalik bilan foydalangan. Masalan, Tug‘luq Temurxon tomonidan uning sarkardalari Bikijak, Xojibek, To‘qtemurlar Movorounnahrni talon-toroj qilish uchun yuborilganida, bundan xabar topgan Temur bu ochko‘z amirlarni mol-dunyo bilan mahliyo qilib, o‘z yurtini qatlu g‘oratdan qutqarib qoladi. Bu tadbir ish berganligidan qanoatlangan sarkarda “Tuzuklar”ida keyinchalik shunday deb yozadi: “Ularning ko‘zlariga o‘xshash ko‘ngillari ham tor bo‘lganligidan, sovg‘a-sovurun yo‘sinida ularaga berilgan har turlik taniq mollar ko‘zlariga ko‘p ko‘rindi va Movarounnahrni bosib olish va talon-toroj qilish niyatidan qaytdilar”.

3. “Yorliq” usuli. Bu harbiy-taktik usul ayni vaqtda mazmunan “qo‘rqitish”, “ogohlantirish” ham ediki, Amir Temur bu usuldan yorliq yuborish yoki elchi, yo vakillar yo‘llash vositalari orqali foydalangan. Masalan, 1395 yili, Temur endigina Iroqni zabt etib turganda, To‘xtamishxon qo‘shini Darband va Ozarbayjonga qo‘shin tortib, fitnayu fasod ko‘targani to‘g‘risida xabar topgach, Darband orqali Samur suvidan o‘tadi, ammo darhol jangga kirmasdan, Dashti Qipchoqning elu ulusiga ushbu mazmundagi yorliqni yo‘llaydi: “Kimki menga kelib qo‘shilsa ulug‘lanadi, kimki men bilan kurashmoqchi bo‘lsa, yiqiladi”. Bu o‘rinda, shuningdek, Temurning Usmoniylar saltanati sultoni Yildirim Boyazidga yo‘llagan yorlig‘ini eslab o‘tish joizdir. Unda, jumladan, shunday deyilgan edi: “...O‘z qadrini bilib, xaddidan oshmay jasorat oyoqlarini tiygan bandasini Tangri yorlaqasin! Sening naslu nasabing kim ekanligi jahon xalqi oldida ma‘lumdir. Shunday ekan, holingga munosib ish tutib, jur‘at oyog‘ini oldinga qo‘ymaki, ranju mehnat balchig‘iga botib, balo chuquriga yiqilgaysan. Iqbol eshidgan haydalgan bir to‘da ig‘vogar kishilar g‘arazli ishlarini bajarish uchun sening panohingdan joy olib, uxlab yotgan fitnani uyg‘otmishlar. Yana o‘shalarning ig‘vosi bilan ofat va balo eshigini davlating yuziga ochmagil. Darhol Qora Yusufni mening oldimga yuborgil. Yo‘q esa taqdir pardasi ikki lashkar saflari to‘qnashganda yuzingga ochilg‘usdir. Anglashiladiki, Amir Temur ayrim tarixchilar aytganlaridek, jangga, qongga tashna bosqinchi bo‘lgan emas, aksincha, ko‘p qurbonliklar olib keluvchi harbiy to‘qnashuvlarni oldini olishga, mojaroni tinch yo‘l bilan hal etishga uringan.

4. “Intiqom”(qasos) usuli. Manbalardan shu narsa ma‘lumki, Amir Temur bag‘rikeng, kechirimli inson bo‘lgan. Lekin ishonchini suyiste‘mol qilganlarni yoqtirmagan. Boshqacha qilib aytganda, va‘da berib, so‘zidan qaytib xiyonat yo‘liga kirganlarni sira ayab o‘tirmagan. Shunday voqea Isfahonda (1387 й.) ro‘y bergan edi. O‘shanda Temur bu shaharni zabt etib, ularga ishonch bildirib, bir dorug‘a va uch ming odam qoldirib, o‘zi Iroq sari yo‘lga chiqqan edi. Oradan bir muncha vaqt o‘tgach, isfaxonliklar isyon ko‘tarib, Temur tayin etgan dorug‘ani va uning odamlarini tig‘dan o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, Temur Isfahon aholisini qatli om qilishga

buyuruq beradi . Bu haqda yozar ekan, Herman Vamberi:”To‘g‘ri, jazo qattiq, lekin adolatli bo‘lgan. Isfahon va Sherozda u xiyonat tufayli qatl qilingan askarlari uchun qasos olgan,”- deydi. Yuqorida tilga olganimiz, bir zamonlar Temur huzuriga panoh so‘rab kelib, so‘ng uning yordamida Oltin O‘rdada oyoqqa tura olgach, bergan va‘dalarini esdan chiqarib, Amir Temurga ko‘p hurmatsizlik qilib, xiyonat yo‘liga kirganlardan biri – bu To‘xtamishxon edi. 1389, 1391, 1395 yillarda unga qarshi olib borilgan janglarga ham shu xiyonat sabab bo‘lgan edi. Oxir-oqibat Amir Temur Oltin O‘rdani holdan toydirdiki, keyinchalik u avvalgi holiga qayta olmadi. Bu haqda “Zafarnoma” muallifi Nizomiddin Shomiy shunday deb yozadi:”To‘xtamishxon bir necha bor do‘stlikdan dam urib, sulh bunyodini qurgan, ammo unga vafo qilmaganligi tufayli Amir Sohibqiron uning so‘ziga iltifot qilmadi. Behisob lashkar, intiqomga o‘ch sipoh, nomdor amirlar, saodatli shahzodalar u mamlakat sari yuzlandilar...”. Xorazm ustiga bir emas, besh marta qo‘shin tortilganiga ham Yusuf So‘fiy tomonidan Temurga nisbatan qilingan xiyonatlar sabab bo‘lganligi manbalardan bizga ayon . Harbiy mahorat haqida gap ketganda buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur nomi albatta tilga olinadi. U xalq faravonligi yo‘lida ilm fan, san‘at va me‘morchilikni rivojlantirgan. Shu bilan birga, dunyoviy va diniy ilmlarning uyg‘unligi asosida adolat o‘rnatgan, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlari hayotining mazmun mohiyatiga aylangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi” 5-tom- T:, 1997. 167-bet.
2. Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O‘zbekiston”-2011.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. - М.Международные отношения. - 1980. - 341 б.
4. Omonulla Bo‘riyev “Sohibqiron Amir Temur” T. “O‘zbekiston”-2011. 76-bet